

“Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizom talablariga asosan “NKMK” AJ Markaziy apparati va tarkibiy bo‘linmalari xodimlari tomonidan Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar to‘ldirishi bo‘yicha

**MA’LUMOT
(2025-yilning 9 oyi)**

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda – Qonun) asosan ishlab chiqilgan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) Kuzatuv Kengashining 2024-yil 7-iyundagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizomi (keyingi o‘rinlarda – Nizom) ijrosini ta’minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida “davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi - davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo‘yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan **boshqaruv xodimi**” deb qayt etilgan.

Joriy yilda Jamiyatda faoliyat olib borayotgan **5 499 nafar** boshqaruv xodimlari va yangi ishga qabul qilingan **117 nafar** boshqaruv xodimlaridan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tasdiqlangan na’munaviy shakldan foydalanilgan holda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar to‘ldirilishi ta’minlandi.

Komplayens xizmati tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani umumlashtirib tahlil qilindi. Natijada, jami **95 ta** manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlandi, shundan **25 ta** mavjud va **70 ta** ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlandi. Aniqlangan barcha manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha Komplayens xizmatining mas’ul xodimlari tomonidan tegishli Odob-axloq komissiyalariga belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqilib, bartaraf etish bo‘yicha taqdimnomalar kiritildi.

Joriy yilda Odob-axloq komissiyalari tomonidan barcha **95 ta** manfaatlar to‘qnashuvi holatlari ko‘rib chiqilib, tegishli qarorlar chiqorildi. Shundan, **19 ta** mavjud hamda **70 ta** ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari to‘liq bartaraf etildi, qolganlarining ijrosi nazoratga olindi.

Komplayens xizmati mas’ul xodimlari tomonidan kelgusida yuqorida aniqlangan barcha holatlari yuzasidan monitoring va o‘rganishlarni davom ettirib, tegishli choralarini ko‘rib borilishi ma’lum qilinadi.